

O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI NORMATIV TARTIBGA SOLISH AMALIYOTINING XUSUSIYATLARI

Samatov Xurshid Ulmasjonovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali "Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri

Jabborov Abdulla Akbar o'g'li

universiteti Toshkent axborot texnologiyalari

Samarqand filiali TTKT fakulteti talabasi

Elektron pochta manzili: abdullajabborov3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni normativ tartibga solish holatini, uning xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini o'rganadi. Maqolada raqamli iqtisodiyotni tartibga solish uchun qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi va blokchein texnologiyalarini joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarida raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning hozirgi holati va uning kelajakdagi rivojlanish yo'llarini aniqlash asosida tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, normativ tartibga solish, blokchein texnologiyalari, kripto-aktivlar, "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi, huquqiy tizim, elektron hujjat aylanmasi, raqamli transformatsiya

Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakatlarni ushbu sohani samarali tartibga solish masalalariga yuzlanishga majbur qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham bu jarayondan chetda qolmagan holda keng ko'lamli raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish yo'lida muhim qadamlar qo'ymoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni normativ tartibga solish holatining umumiy tavsifi. Raqamli iqtisodiyotni normativ tartibga solishning hozirgi holati

raqamli iqtisodiyotni emas, an'anaviy iqtisodiyotni tartibga solishga tayanadi. Ularning qoidalari raqamli iqtisodiyotga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan (va qo'llanayotgan) ko'plab hujjatlar to'plami mavjud. Bunda raqamli iqtisodiyotni tartibga solish uchun maxsus yaratilgan va uning o'ziga xosliklarini aks ettiradigan alohida hujjatlar ham mavjud, lekin ularning soni ko'p emas va asosan, elektron hujjat aylanmasi va elektron savdoga taalluqli hisoblanadi.

An'anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot uchun normativ huquqiy tartibga solishning umumiy manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, intellektual mulk haqidagi qonun hujjatlari, savdo haqida qonunchilik va ularning qonun-qoidalari raqamli iqtisodiyotga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan (yoki qo'llanayotgan) boshqa hujjatlar namoyon bo'ladi. U O'zbekiston huquq tizimini yangilash, qonunchilikni barcha sohalarini rivojlantirish uchun o'ziga xos katalizatorga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida suveren demokratik respublika sifatida ta'riflanadi. Bu esa barcha muhim masalalar, jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, uning yangicha shakllarini joriy qilish masalalari demokratik asoslarida hal etilishi lozimligini anglatadi.

Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasida yagona iqtisodiy makonni, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy vositalar erkin harakatlanishini, raqobatning qo'llab-quvvatlanishini, iqtisodiy faoliyat erkinligini, barcha shakllardagi mulkchilikni bir xilda himoya qilishini kafolatlaydi. Bu konstitutsiya qoidalari raqamli iqtisodiyotni tartibga solishga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lib, unga nisbatan to'liq amal qiladi, ya'ni shuni anglatadiki, raqamli iqtisodiyot sohasida qabul qilinadigan qolgan barcha me'yoriy hujjatlar ushbu konstitutsiya me'yorlariga mos kelishi kerak, kolliziya holatida esa Konstitutsiya me'yorlari ustunlik qilishi lozim. Bu raqamli iqtisodiyotni huquqiy tartibga solishda hal qiluvchi fursat bo'lib, mavjud va taklif qilinayotgan huquqiy-me'yoriy tartibga solish konstitutsionalligini baholash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni me'yoriy tartibga

solishning holati ilmiy hamjamiyat tomonidan tanqidiy baholanadi. Huquqiy tartibga solishning amaliyot ehtiyojlaridan yaqqol orqada qolishi kuzatilmoqda, bunda vaqt bo'yicha orqada qolish tobora ortib bormoqda. Biznes va iqtisodiyot fani vakillarini raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun normativ to'siqlar, mavjud tartibga solishning sezilarli qismini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitlari uchun qo'llay olmasligini qoniqtirmaydi. Oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyotni kompleksli va jadal (yangi qonunchilik joriy qilishning umumiy mezonlari bo'yicha) tartibga solish g'oyasi ustunlik qildi. Strategik rivojlanish hujjatlari, yangi qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlar rejalashtirilgan o'zgarishlar uchun asosiy g'oyasi bo'lishi lozim bo'lib, ularning bir qismi qabul qilingan, me'yoriy hujjatlarning boshqa qismini isloh qilish, shuningdek, yangi qonunlar qabul qilish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining harakatlar strategiyasida davlatni innovatsion rivojlantirishda asosiy rol raqamli texnologiyalarga tegishli. Bunda Strategiyani amalga oshirishning birinchi bosqichida (2017-2018 yillar) innovatsion iqtisodiyotga o'tishning tashkiliy, moliyaviy va qonunchilik mexanizmlari yaratish ko'zda tutiladi. Strategiyani amalga oshirishning ikkinchi bosqichida esa (2019-2021 yillar) raqamli, intellektual ishlab chiqarish texnologiyalari, robotlashtirilgan tizimlardan foydalanish, shuningdek, yangi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va eksport qilishdan iborat bo'lgan raqamli iqtisodiyotni keng ko'lamli joriy qilish rejalashtirilgan.

Dasturda raqamli iqtisodiyot xo'jalik faoliyati sifatida tavsiflanadi. Dasturda raqamli iqtisodiyot unda asosiy ishlab chiqarish omili raqamli shakldagi ma'lumotlar hisoblanadi hamda jamiyat va fuqarolarning sifatli va ishonchli ma'lumotlar olishga ehtiyojini hisobga olgan holda axborot makonini shakllantirishga, axborot infratuzilmasini rivojlantirishga, Respublika axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va qo'llashga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy soha uchun yangi texnologik asoslar shakllantirishga xizmat qiladigan xo'jalik faoliyati sifatida tavsiflanadi.

"O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyoti" Dasturining maqsadlari sifatida quyidagilar ma'lum qilingan:

1) raqamli shakldagi ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida ishlab chiqarishning asosiy omili sanab o'tilgan va unda samarali o'zaro aloqalar, jumladan, xalqaro aloqalar, biznes, ilmiy-ta'lim hamjamiyati, davlat va fuqarolar o'rtasidagi aloqalar ta'minlanadigan O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyoti ekotizimi yaratish;

2) institutsional va infratuzilma xarakteridagi zaruriy va yetarli sharoitlar yaratish, iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlarida ham, yangi tarmoqlar va yuqori texnologiyali bozorlarda ham yangi to'siqlar va cheklovlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va yuqori texnologiyali biznesni yaratish va (yoki) rivojlantirish uchun mavjud to'siqlar va cheklovlarni bartaraf etish;

3) O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining alohida tarmoqlari va butun iqtisodiyot miqyosida global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish.

Raqamli iqtisodiyot Dasturga muvofiq uchta daraja bilan ifodalanadi: bozorlar va iqtisodiyot tarmoqlari (faoliyat sohalari); platformalar va texnologiyalar hamda iqtisodiyot tarmoqlari (faoliyat sohalari) va bozor sub'ektlarining samarali o'zaro aloqalari uchun sharoitlar yaratadigan muhit. Bularning keyingisi me'yoriy tartibga solish, axborot infratuzilmasi, kadrlar va axborot xavfsizligini qamrab oladi. Shunday qilib, mazkur Dasturda me'yoriy tartibga solish raqamli iqtisodiyotning uchinchi darajasiga mansub.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqarish uchun Dasturda 2021 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishning beshta asosiy yo'nalishi bo'yicha maqsad va vazifalar belgilab berilgan bo'lib, bunda me'yoriy tartibga solish birinchi o'rinda aytib o'tilgan.

Zamonaviy texnologiyalar vujudga kelishi va rivojlanishi, shuningdek, ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat (raqamli iqtisodiyot) amalga oshirish uchun qulay huquqiy rejimni ta'minlaydigan yangi tartibga solish muhiti shakllantirishda me'yoriy tartibga solish bilan bog'liq yo'nalishning asosiy maqsadi

hisoblanadi.

Bu yo'nalish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, raqamli iqtisodiyotni tartibga solish sohasida bilimlarni va o'zgarishlarni boshqarish doimo amal qiladigan mexanizmi yaratish; ikkinchidan, asosiy huquqiy cheklovlarni olib tashlash va raqamli iqtisodiyot shakllantirishning birinchi galdagi vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan alohida huquqiy institutlar yaratish; uchinchidan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tufayli yuzaga keladigan munosabatlarni kompleksli huquqiy tartibga solishni shakllantirish; to'rtinchidan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ma'lumotlar to'plash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan choralar ko'rish; beshinchidan, Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi hududida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha siyosat shakllantirish, Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi hududida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladigan me'yoriy-huquqiy tartibga solishga yondashuvlarni uyg'unlashtirish; oltinchidan, raqamli iqtisodiyotni tartibga solish sohasida vakolatlarni rivojlantirish uchun uslubiy asoslar yaratish.

Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning aksariyati me'yoriy-huquqiy tartibga solishni talab qilishi sababi raqamli iqtisodiyotni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va monitoringni ta'minlaydigan markaz va yo'nalishlar Dasturini amalga oshirish uchun yaratilayotgan barcha ishtirookchilarning o'zaro aloqalari va ularni muvofiqlashtirish zarurati ta'kidlab o'tiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqarish uchun "yo'l xaritasi" shakllantirilgan bo'lib, u har bir asosiy yo'nalish bo'yicha Dasturning maqsadlari va asosiy vazifalari tavsifidan iborat bo'ladi, shuningdek, ularga erishish muddatini belgilab beradi.

Me'yoriy tartibga solish borasida quyidagi muddatlar belgilab berilgan:

- 2018 y. - raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha birinchi galdagi chora-tadbirlar kontseptsiyasi amalga oshirilgan bo'lishi lozim, bu esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asosiy huquqiy cheklovlarning olib tashlanishi, bundan

tashqari, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan birinchi galdagi asosiy huquqiy tushunchalar va institutlar belgilab berilishi lozim;

- 2019 yil - raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha o'rta muddatli chora-tadbirlar kontseptsiyasi amalga oshirilishi lozim, buning natijasida raqamli iqtisodiyotda vujudga keladigan munosabatlar kompleksli ravishda tartibga solinishi va yangi vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solish mexanizmi yaratilishi lozim;
- 2021 yil - raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan munosabatlarni kompleksli huquqiy tartibga solish kontseptsiyasi amalga oshirilishi lozim, buning natijasida tartibga solish muhiti raqamli iqtisodiyot yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun qulay huquqiy rejimni to'liq hajmda ta'minlashi lozim.

Hukumat dasturi haqiqatda bajarilgan holatda o'zgarishlarning ijobiy tomoni eng avvalo, davlat organlari uchun ochiq bo'lgan katta ma'lumotlarni jamlashtirishda va boshqarishni markazlashtirish darajasini oshirishdan iborat. Biznes uchun (eng avvalo, yirik biznes uchun, chunki bu borada uning imkoniyatlari ko'proq) Dastur va Rejaga kiritilgan imtiyozlar olish va ma'lumotlar to'plamiga ulanishni kengaytirish hisobiga ma'lum bir (jumladan, iqtisodiy) foyda ham kuzatiladi.

Ushbu sohaga, jumladan, rejalashtirilgan qonunchilik o'zgarishlariga yangi moliyaviy qo'yilmalarni ham hisobga olish lozim. Biroq bu fursotlar mamlakatning huquqiy va iqtisodiy tizimi uchun risklar va potentsial ehtimoliy salbiy oqibatlardan ustun kelishi yoki hech bo'lmaganda ularni muvozanatga solishi aniq emas.

Birinchidan, ko'zda tutilgan qonunchilik o'zgarishlari ko'lami o'ziga e'tibor qaratadi: 10 dan ortiq me'yoriy hujjatlar paketlari tayyorlanishi lozim, bu esa qonunchilik tizimi uchun, uning yangicha tartibga solish mos keluvchi sifatni ta'minlash uchun ilmiy hamjamiyat tomonidan jiddiy muhokama qilishni talab

etadigan yangi huquqiy vositalar va o'zgacha tushunchalarni moslashtirishda va ijtimoiy munosabatlarni har qanday tartibga solishning yuzaga kelgan o'ziga xosliklariga ega bo'lgan turli tarmoqlari uchun jiddiy o'zgarishlar haqida gap ketayotganini anglatadi.

Biroq aynan keng ko'lamli o'zgarishlar bunday o'zgarishlar uchun juda qisqa muddatlar bilan bog'liqlikda taklif qilinadi. Chora-tadbirlarning katta qismi bir yil davomida amalga oshirilishi lozim, masalan, ishonch umumiy raqamli muhiti shakllantirish doirasida me'yoriy hujjatlarni 2018 yil yanvardan dekabrgacha amalga oshirish ko'zda tutilgan, fuqarolik aylanmasi hujjatlari va o'zini-o'zi ijro etadigan me'yoriy hujjatlarni - 2018 yil yanvardan oktyabrgacha, ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash haqida me'yoriy hujjatlar - 2019 yil yanvardan maygacha va h.k.

Ma'lumki, huquq tizimi va qonunchilik tizimi huquqiy me'yorlar yoki me'yoriy-huquqiy hujjatlar tartibsiz to'plami va oddiy yig'indisini emas, balki ularning elementlari muvofiqlashtirilib va bir-biri bilan bog'liq bo'lgan murakkab tizimli tuzilmalarni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yilning 3 iyulida "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832 sonli qarorni imzoladi.

Qarorda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan:

- investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning (turli kripto-aktivlarda yangi birliklar va komissiya yig'implari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat), smart-kontrakt (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, kraud-fanding

(jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, "blokchein" texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish;

- "blokchein" texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ish ko'nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash;

- kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat va "blokchein" texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun "blokchein" texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish;

- xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda "blokchein" texnologiyalarini joriy etish uchun zarur huquqiy bazani yaratish;

- raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash.

Hujjatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning kripto-aktivlar aylanmasi bilan bog'liq operatsiyalari, jumladan norezidentlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar soliq solinadigan ob'ekt hisoblanmaydi, mazkur operatsiyalar yuzasidan olingan daromadlar esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga kiritilmaydi.

Hujjat doirasida 2021 yil 1 yanvardan boshlab "blokchein" texnologiyalarini davlat organlari faoliyatiga, jumladan boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilishda, davlat xaridlarini amalga oshirishda, davlat xizmatlarini ko'rsatishda, shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni verifikatsiyalashda tatbiq etish lozim.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni normativ tartibga solish jarayoni faol

rivojlanmoqda, ammo bu jarayon hali ham o'tish bosqichida hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi va blokchein texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlar muhim yutuqlar hisoblanadi.

Biroq, muvaffaqiyatli natijalar erishish uchun quyidagi masalalarni hal etish zarur:

1. Huquqiy bazani yanada mukammallashtirish
2. Xalqaro tajriba va standartlarga muvofiq normativ hujjatlarni ishlab chiqish
3. Raqamli iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab oladigan kompleks yondashuvni ishlab chiqish
4. Davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash

Kelajakda O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni tartibga solish sohasida mintaqaviy lider bo'lish salohiyatiga ega, ammo buning uchun huquqiy bazani yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga muvofiq normativ hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832 sonli qarori. 2018 yil 3 iyul.
3. "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr.
4. "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2019 yil.
5. Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. UNDP. 2024.
6. World Bank Report: Uzbekistan Digital Economy Development. 2023.
7. Current aspects of digitalization in Uzbekistan. Global CIO. 2024.

8. Digital payments in Uzbekistan: legal reforms and global implications. Legal Developments. 2024.
9. Asian Development Bank. Uzbekistan's Economic Growth Prospects. 2025.
10. Oxford Insights. Harnessing AI for development: Uzbekistan's progress. 2025.